

NAVOIYDAN KUCH OLGAN BERDAQ IJODIYOTIDA UMUMINSONIY QARASHLAR TAHLILI

Pardayeva Fotima Sobirjonovna

Toshkent Tibbiyot Universitetining

4-bosqich 407-guruh talabasi

E-mail: fotimapardayeva55@gmail.com

Tel: +998933037603

Annotatsiya: Navoiy ijodidan tasirlangan Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan adabiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalari hozirga glaballashuv sharoitida ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda va bugungi hayotimizda yoshlar tarbiyasida foydali va kerakli manba bo'la oladi.

Kalit so'zlar: ma'rifat, ijtimoiy-iqtisodiyahvol, jamiyat, tamaddun, demokratik, ijtimoiytengsizlik, muarrix.

Аннотация: Литературные произведения, проникнутые высоким гуманистическим духом Бердака, на которого оказали влияние произведения Навои, Его литературные, общественно-политические и философские идеи, проникнутые высоким гуманистическим духом Бердака, который находился под влиянием произведений Навои, сохраняют свое воспитательное значение даже в нынешнюю эпоху глобализации и могут служить полезным и необходимым ресурсом в воспитании современной молодежи.

Ключевые слова: просвещение, социально-экономическая ситуация, общество, цивилизация, демократический, социальное неравенство, историк.

Abstract: Literary, imbued with the high humanistic spirit of Berdak, who was influenced by the works of Navoi, His literary, social-political, and philosophical ideas, imbued with the high humanistic spirit of Berdak inspired by the works of Navoi, retain their educational significance even in the current era of globalization and can serve as a useful and necessary resource for the upbringing of young people in our modern life.

Keywords: enlightenment, socio-economic situation, society, civilization, democratic, social inequality, historian.

Adabiyotimizni kuzatar ekanmiz Navoiy ta'sirining manbalarini quydagicha talqinda uchramiz. Yaniy Alisher Navoiy turkiy adabiyotga falsafiy teranlik, badiiy mukammallik va yuksak axloqiy mezonlarni olib kirgan buyuk mutafakkiri sifatida uning, inson qadri, adolatli jamiyat, ilm-ma'rifatga intilish, ezgulik va haqiqat haqidagi qarashlari keyingi avlod ijodkorlari, xususan Berdaq uchun kuchli ilhom manbai bo'laolgan. O'zbek adabiy tafakkur taraqqiyotida Navoiy va Berdaq siymolari o'zaro ruhiy-ma'naviy uzviylikda namoyon bo'ladi. Berdaq ijodiy ijodda Navoiy

merosi kuchli manba bo'lib, u insonparvarlik, adolat ma'rifat va xalqparvarlik g'oyalarini o'z davri ruhiga mos ravishda davom ettirdi. Shu bilan birga, Berdaq real hayotdagi zulm, tengsizlik va johillikka qarshi keskin ijtimoiy ohang bilan chiqadi. Umuminsoniy meros sifatida ushbu ikki ijodkor Navoiy va Berdaq ijodini bog'lab turuvchi asosiy jihatlar ko'plab topiladi lekin umuminsoniy qadriyatlar buning asosini tashkil qiladi. Ularning asarlarida esa millat, til va hududdan ustun bo'lgan insonparvarlik, adolat va haqiqatga savdo, ma'naviy kamolot g'oyalari oldinga suriladi. Berdaq ijodida Navoiy ruhi va an'analarini ko'r-ko'rona takrorlamaydi, balki ularni xalqning ijtimoiy muammolari, erkinlik va adolat talablari, milliy o'zlikni anglash bilan uyg'unlashtirgan Berdaq she'riyatida Navoiyga xos tarzda ma'naviy poklik, so'z ma'lumoti, xalq dardini kuylash yoqqol seziladi.

Shu bois Berdaq ijodi faqat qoraqalpoq xalqi uchun emas, balki butun turkiy va jahon madaniyati kontekstida qimmatli meros sifatida o'rganishi katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov. Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur demokrat shoiridir deya tarif bergan. Shuning uchun u o'z zamonasidagi adolatsizlikdan, xon gumashtalaridan, soliq yig'uvchilardan, miroblarning o'zboshimchaligidan, zolimligidan noliydi, inson qancha mehnat qilmasin, muhtojlikdan chiqaolmasligidan zorlanadi:

Chaqqon odim tashlab, mehnat qilmasang,

Kun ko'rmoqlik qiyin bo'ldi bu zamon.

Berdag o'zining "Bo'lgan emas", "Bu yil" kabi she'rlarida xon va beklarning olib borayotgan siyosatini qoralaydi, ularning mehnatkash xalqqa o'tkazayotgan zulmini, shafqatsizligini tasvirlaydi. Berdaq insonni yuksaklikka ko'taradi, xalqni katta kuch ekanligini ta'kidlab, hukmron sinf vakillarini mehnatkash xalqni hurmat qilishga, ularga yordam berishga chaqiradi. Shoir o'zini xalqning ajralmas bir qismi, deb tasavvur qiladi.

Berdag o'zi yashayotgan tuzumni, uning tartiblarini tanqid ostiga oladi. Shoirning fikricha, mavjud siyosiy tuzum mehnatkash xalqni haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qila olmaydi. Bunday tuzumda faqat adolatsizlik, haqsizlik, ta'magirlik, o'zboshimchalik va boshqa insonga xilof illatlar hukm suradi. Shoir zolimlardan zorlanib bunday deydi:

Hech qachon zolimlar qo'ldagi borin,

Ep qo'rmaslar, bor bo'lsada, xalq uchun.

Navoiy ijodidagi kabi Berdaq ijodiy merosida axloq, xulq-odob, nafosat va go'zallik masalalari muhim o'rinni egallaydi. Uning she'rlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, oddiy axloq qoidalari to'g'risida qimmatli fikrlar uchraydi. Shoirning aytishiga qaraganda, ba'zi mulla va eshonlar xalq oldida o'zlarini halol va pok, adolatparvar etib ko'rsatadilar. Amalda esa buning aksini ko'ramiz. Shoir ularning munofiqligini fosh etib tashlaydi.

Berdaq o'zining axloqiy qarashlarida Sharqning eng yaxshi an'alarini davom ettirdi. U "Izladim", "Xalq uchun", "Yaxshiroq", "Menga kerak" kabi she'rlarida kishilarning halol mehnatini ulug'laydi. Berdaq xuddi Navoiy kabi odamlarni axloq-odobiga qarab, ularni ikkiga: yaxshi va yomonga bo'ladi. Yaxshi odam deganda, u butun insoniy fazilatlarini o'zida to'plagan dono, aqlli, bilimdon, o'zgalarga yordam beruvchi, fe'l-atvori go'zal kishilarni ko'z oldiga keltiradi. Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur shoiri, asl farzandidir. Qoraqalpog'istondagi ko'pgina maktablar, ko'chalar, kinoteatrlar, kutubxonalar shoirning nomiga qo'yilgan. Shuningdek, Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat mukofoti ta'sis etilgan. Bu mukofot badiiy adabiyot, san'at va me'morchilik sohasidagi eng yaxshi ishlarga beriladi.

Lekin Berdaq xalqning o'z baxti va ozodligi uchun kurashi adolatli kurash ekaniga qattiq ishonar, ana shu orzu qilgan baxtli baxtli zaminlar kelajagiga umid bog'lar edi. Alisher Navoiydan kuch olgan Berdaq ijodiyoti ustoz va shogird ruhiy merosining namunasi dir. Navoiy solgan yuksak ma'naviy-estetik mezonlar Berdaq ijodida yangi ijtimoiy mazmun bilan boyib, umuminsoniy ahamiyat kasb etdi. Bu meros bugungi kunda ham insonni ezgulikka, adolatga va ma'rifatga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hurriyat gazetasi. Prezident nutqi. 2018-yil 12-son.
2. "Berdaq she'riyatidan" M.K.Nurmahammedov 45-bet.
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Berdaq>
4. O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi X.S.Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar institute "BERDAQ SHE'RIYATIDAN" Mirtemir tarjimasi 1978-yil.
5. Tanglauli shig'armalari, Nokis 1956-yil.
6. Tanlangan she'rlar 1958-yil T;1976.
7. Qurboboyev B, Berdaq va o'zbek adabiyoti T;1986-y.
8. Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. Toshkent.1999-yil.